

O`ZBEK ROMANLARIDA AMIR TEMUR OBRAZLARI TALQINLARI

Jo`rayeva Nargiza Qurbanovna

TerDPI o`zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`zbek romanlarida Amir Temur obrazining aks etishi xususidagi fikrlar mulohazaga tortilgan. Qayd etish lozimki, asarlardan o`rin olgan Amir Temur siyosining ayrim hollarda ziyrak sarkarda ekanligiga urg`u berilgan bo`lsa, ayrim hollarda uning donishmand inson ekanligi alohida qayd etiladi.

Kalit so`zlar: o`zbek adabiyoti, mustaqillik davri, Amir Temur, romanlar, sohibqiron, insoniylik.

INTERPRETATIONS OF AMIR TIMUR'S IMAGES IN UZBEK NOVELS

Jurayeva Nargiza Kurbanovna,

1st-year master's student of TerDPI Uzbek language and
literature specialty

Abstract. In this article, the opinions about the reflection of the image of Amir Temur in Uzbek novels are discussed. It should be noted that in some cases, the character of Amir Temur, who appeared in the works, is emphasized as a shrewd general, and in some cases, it is specially noted that he is a wise man.

Keywords: Uzbek literature, period of independence, Amir Temur, novels, masters, humanity.

ИНТЕРПРЕТАЦИИ ОБРАЗОВ АМИРА ТИМУРА В
УЗБЕКСКИХ РОМАНАХ

Джураева Наргиза Курбановна,

магистрант 1 курса ТерДПИ специальности у
збекский язык и литература

Абстрактный. В данной статье обсуждаются мнения об отражении образа Амира Темура в узбекских романах. Следует отметить, что в некоторых случаях персонаж Амира Темура, фигурирующий в произведениях, подчеркивается как проницательный полководец, а в некоторых случаях специально отмечается, что он мудрый человек.

Ключевые слова: узбекская литература, период независимости, Амир Темур, романы, мастера, человечество.

Barchamizga ma'lumki, mustaqillik sharofati bilan o'zbek adabiyotida ham anchayin o`zgarishlar yuz berdi, bu sohada so`z erkinligiga erishildi desak ham aslo mubolag`a bo`lmaydi. Qayd etish lozimki, sobiq sho`ro davrida cheklangan xilma-xil mavzular istiqlol davriga kelib yana qayta qalamga olindi. Tarixiy mavzular, qahramonlik, vatanparvarlik ruhida yozilgan asarlar salmog`i ham anchayin oshdi, desak aslo mubolag`a bo`lmaydi. Ana shunday asarlardan biri bu Amir Temur siyomosi xususidagi asarlardir. Ta`kidlash o`rinliki, Amir Temur haqida bitilgan asarlar ko`p: qissa, hikoya, drama va hokazo. Bizning ushbu maqolamizda aynan Amir Temur siyomosi va uning o`zbek romanlaridan o`rin olishi borasidagi mulohazalar tahlilga tortilgan.

O`zbek adabiyotida Amir Temur shaxsiyatini yorqin tasvirlagan yozuvchi bu Muhammad Alidir. Bir so`z bilan aytganda, ushbu ijodkorni Amir Temur siyomosining o`zbek adabiyotidagi targ`ibotchisi, desak ham aslo mubolag`a bo`lmaydi. Uning qator asarlari Amir Temurga bag`ishlangan. Jumladan, “Sarbadorlar”, “Ulug` saltanat”, “Amir Temur chamani”, “Amir Temur va Yildirim Boyazid” va boshqalar shular jumlasidandir[4]. Bir necha qismdan iborat bo`lgan “Sarbadorlar” romani Amir Temur yashagan tarixiy davrlarni o`zida aks ettirgan asar hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu asarda qator to`qima obrazlar ham mavjud bo`lib, bu orqali muallif Amir Temur siyomosining yorqin jihatlarini ochib berishga harakat qilgan. “Sarbadorlar” romanida Amir Temur siyomosining ikki jihatiga alohida urg`u beriladi va murakkab timsol sifatida tasvirlanadi. Birinchidan, unda yakkahokimlik, o`zga insonlarni tan olmaslik kabi sifat mujassam bo`lgan bo`lsa, ikkinchidan, ko`plab hududlarni birlashtirishga harakat qilgan yosh sarkarda timsoli asar mohiyatidan o`rin olgan. Romanda Amir Temur uzoqni ko`zlab ish tutuvchi, mantig`ini ishga soluvchi shaxs sifatida harakat qiladi. Bu esa ushbu timsolning yanada yorqinroq tasvirlanishiga yordam beradi. Muhammad Ali Amir Temur siyomosini ochib berishga urg`u berar ekan, avvalo, obraz psixologiyasiga e`tibor qaratadi. Bu tarixiy obraz psixologiyasida nimalarga diqqat qilish lozim, qay holatda kitobxonda yaxshi taassurot uyg`otish va uning haqqoniyligiga ishontirish mumkin va shu kabi savollarga javob topishga uringan Muhammad Ali, darhaqiqat, buni haqqiqiy yozuvchi sifatida uddalay oldi. Amir Temur atrofida sodir bo`layotgan voqealar, uning yonida ishtirok etuvchi obrazlar tizimi, ularning dunyoqarashi – bularning barchasi asar badiiyatidan o`rin olgan jihatlar sifatida e`tirof etiladi[7].

Muhammad Alining Amir Temur haqida yozilgan asarlaridan biri bu “Ulug` saltanat” epopeyasidir. Ushbu asarda Sohibqironning ma'naviy dunyosiga urg`u berilgan, desak aslo mubolag`a bo`lmaydi. Uning shaxsiyatiga singgan bag`rikenglik, mehribonlik, insoniylik, haqqoniylilik kabi sifatlar ushbu asardan o`rin olgan asosiy masalalardir. Amir Temur bir necha davlatlarni birlashtirib, yagona saltanat barpo etishga urinar ekan, ayni shu jarayonda uning bu davlatda halollik, erkinlik, boy-farovon yashashni istayotgan xalq va uning orzu-istikclarini amalga oshirish maqsadi ham

mujassam edi. Mashaqqatli yo`l bo`lishiga qaramasdan, o`z niyatidan qaytmagan Amir Temur siymosi ushbu asarda o`z “jasoratini ko`rsatdi”[6].

Amir Temur – buyuk sohibqiron, donishmand sarkarda, o`ychil inson. O`zbek adabiy muhitida bu tarixiy shaxs xususida yaratilgan romanlar xilma-xil bo`lib, ularning ba`zilarida Amir Temur shaxsiyatiga alohida urg`u berilgan bo`lsa, ba`zilarida uning sarkardalik qobiliyati markaziy o`rinni egallagan. Ana shunday romanlardan biri bu Oraz Abdurazakovning “Povelitel”(Hukmdor) romandir. She`riy usulda yozilgan ushbu romanda Amir Temurning taxtga chiqish tarixi xususidagi fikrlar o`rin olgan va buni Sharq qo`lyozmalari Markazining katta ilmiy xodimi Dilorom Yusupova shunday deb ta`kidlaydi: “Bugungi kunga qadar Sohibqironning taxtga chiqish tarixini hech kim yorita olmagan edi. Hukmdorning taxtga chiqish bosqichi, o`sha davrning hayot va turmush tarzini bat afsil she`riy tarzda yoritish – bu nostandard masala va muallif xronologik aniqlikni buzmagan holda buning uddasidan chiqdi”[8].

“Povelitel” romani Amir Temur hayotidagi 1365-yildan 1370-yilgacha bo`lgan davrlarni qamrab olgan. Bu davr mobaynida Amir Temur hayotida taxtga o`tirish jarayoni hamda Samarqandga hukmronligi boshlanishi xususidagi fikrlar muallif tomonidan mohirlik bilan qalamga olingandir[1].

O`zbek adabiyotida Amir Temur siymosi xususida yaratilgan yana bir asarlardan biri bu Bo`riboy Ahmedovning “Amir Temur” nomli romanidir. Amir Temur tavalludining 600 yilligiga bag`ishlab yozilgan ushbu roman uch qismdan iborat bo`lib, ular quyidagicha nomlarga ega:

Birinchi qism – “Ulusdagi beqarorlik”.

Ikkinci qism – “El-yurtning emnu omonligi deb”.

Uchinchi qism – “Jahongirlik qismati”[5].

Ushbu roman o`zbek adabiyotida Amir Temur shaxsini uning sarkardarlik qobiliyati bilan birlashtirgan holda namoyon etishi bilan ajralib turadi. Amir Temur hayotida isyon qilgan amirlar, uning el-yurt dardiga malham sifatida taxtdan o`rin egallashi, umrining ba`zi yillarining sarson-sargardonlikda o`tishi, Amir Temurga xiyonat qilgan sarkardalar, uning ichki dushmanlari, maqsad qilgan orzularining birma-bir ushalishi – bularning barchasi “Amir Temur” romanidan o`rin olgan masalalar sanaladi. Bundan tashqari Sohibqironning Xorazm, Hirot, Kalot, Turshiz, Hindiston, Iroq, Shom kabi davlatlar ustiga yurishi ham ushbu romanda qalamga olingan mavzulardan sanaladi.

Bundan tashqari, jahon adabiyotida ham Amir Temur haqida yozilgan asarlar soni ko`p bo`lib, ularga misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Sanktiyon “Buyuk Temur tarixi”
- R. Margan “Temur tarixi”
- X. Mozer “Markaziy Osiyo bo`ylab”
- X. Moranville “Temur va uning saroy ahli xotiralari”

- E. Gullua “Temur poytaxtiga sayohat” va hokazo[13].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Amir Temur siyosining o`zbek romanlarida o`ziga xos o`rni bor. Demoqchimizki, ushbu timsol asarlarda tarixiylik timsoliga aylanib ulgurgan. Amir Temur shaxsini qalamga olish esa har bir yozuvchining mahoratini ohib berishga yordam beradigan jihat sanaladi, desak aslo mubolag`a bo`lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov. B. Qadamingizga hasanot Sohibqiron//Toshkent oqshomi-1996.
2. Amir Temur vasiyati. T.:O`zbekiston-1991. Bo`riboy Ahmedov tahriri ostida.
3. Amir Temur vasiyatlari, nasihatlari, tanbehlari. T.:O`zbekiston-2000. Mas`ul muharrir-K. Normurodov.
4. Amir Temur jahon tarixida. T.:Sharq-2001. Ish rahbari-S.Saidqosimov.
5. Amir Temur o`gitlari. T.:Navro`z-1992.
6. Bo`riyev Omonullo. Sohibqiron Amir Temur. T.:O`zbekiston-2011. 112 b.
7. Fayziyev Turg'un. Temuriylar shajarasi. T.:Yozuvchi-Xazina-1995. 352 b.
8. Fayziyev. T. Muhammad Tarag'ay avlodlari//Fan va turmush-1996.
9. Fayziyev. T. Ulkan sulola//Mehrgiyoh-1996.
10. Hamidova. M. Amir Temur vafotidan so`ng//Milliy tiklanish-1997.
11. Ibn Arabshoh. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. T.:Mehnat-1992. Mas`ul muharrir-A. O`rinboyev. 192 b.
12. Ismoil Aka. Buyuk Temur davlati. T.:Cho`lpion-1996. 160 b.
13. Ibrohimov A. Davlatning salobati. T.:O`zbekiston-2005.